

**Xongeldiyeva Sevara Shuxrat qizi**

O'zbek filologiyasi fakulteti Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili ta'limi yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: **Umurqulov Bekpo'lat**

**Annotatsiya:** Bu maqolada og'zaki madaniy nutqning asosiy kommunikativ sifatleri, monologik va diologik nutqni rivojlantirish omillari, nutqning sofligi, boyligi va ifodaliligi voqealanishi borasidagi fikr-mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Nutq, og'zaki nutq, monologik nutq, dialogik nutq, nutq sofligi, boyligi, ifodaliligi voqealanishi, nutqni rivojlantirish omillari.

O'quv mashg'ulotlarida bilimni faqat yozma tarzda emas, balki og'zaki nutq orqali o'zlashtirish mumkin. Bunda o'qituvchi ma'lum mavzudagi ma'ruzasini muayyan izchillik asosida bayon etadi, ya'ni dalillarni asoslaydi, taqqoslaydi, ular o'rtasidagi aloqani ma'lum qiladi, fikrini og'zaki bayon etish orqali bu ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi. Nutq ikkiga – og'zaki va yozma nutqlarga bo'linadi. Og'zaki nutq so'zlash-eshitishga qaratilgan bo'lsa, yozma nutq yozish-o'qishga qaratilgan bo'ladi. **Og'zaki nutq** – nutqning so'zlashuv shakli. Og'zaki nutq yozma nutqdan tovush orqali farqlanadi. Og'zaki nutq 2 shaklga ega: monologik nutq va dialogik nutq.

**Monologik nutq** –so'zlovchining o'ziga qaratilgan, boshqa shaxsning tinglash va javob berishini e'tiborda tutmaydigan nutq shakli. Ayrim drammatik asarlarda personajning monologik nutqi tomoshabinga qaratilgan bo'ladi. Monologik nutq nasriy asarlarda ham bor. Nazmda esa asosiy nutq shakllaridan biri hisoblanadi. Ba'zan monologik nutqda asarning kulminatsion nuqtasi bayon etiladi. Monologik nutq uchun, odatda, tuzilish va mazmun jihatidan o'zaro bog'liq, o'ziga xos kompozitsion quruluşga va mantiqiy tugallikka ega bo'lgan matnning ma'lum bo'lagi xos bo'ladi. Monologik nutq og'zaki (nutq bayon qilish) yoki yozma (publitsistika, memuarlar, kundaliklar) shaklida ifodalanishi mumkin. Monologik nutqning og'zaki shaklida ohang (intonatsiya) muhim o'rin egallaydi, yozma monologik esa ohang matnning sintaktik konstruksiyasiga, mantiqiy urg'u tushuvchi so'zlarning joylashish o'rniga bog'liq. Monologik nutq notiqning asosiy nutqiy shakllaridan hisoblanadi; lingvo-stilistik usul bo'lib, bir qancha turlari mavjud. Masalan, ta'sir qiluvchi (targ'ib qiluvchi) monologik nutq, dramatik monologik nutq, lirik monologik nutq, hikoya qiluvchi (axborot beruvchi) monologik nutq. Monologik nutqning ochiq nutq va ichki nutq kabi ko'rinishlari mavjud; ochiq monologik nutqda personaj o'z nutqini ovoz chiqarib bayon etadi; ichki monologik nutqda monolog personajning ichki nutqi, o'ylari shaklida namoyon bo'ladi.

**Dialogik nutq** – og'zaki nutqning bir turi bo'lib ikki yoki undan ortiq shaxslarning suhbatida quriladi. Dialog so'zi "grek" tilidan olingan bo'lib, "dio – ikki, logos – so'z, nutq" ma'nosini anglatadi. Dialogik nutq ikki kishi orasidagi fikr axborot almashinuvi degan ma'noni anglatadi. Dialog – ikki yoki undan ortiq shaxs orasidagi uzliksiz nutq shakllaridan biri hisoblanadi. U og'zaki nutqning eng keng tarqalgan turi hisoblanadi.

Og'zaki nutq bir yoki bir necha kishining ovoz chiqarib so'zlashi asosida yuzaga keladi: suhbat, ma'ruza. Og'zaki nutqning xususiyatlari quyidagilar:

**Suhbat**

- ma'lum bir mavzu yuzasidan dialog (yoki piliog) tarzida bo'lib o'tadigan nutqiy muloqot.

Suhbat oldiga qo'yilgan talablar:

1. Mavzudan chetga chiqmaslik;
2. Savollarga aniq, qisqa, to'liq javob berish;
3. Javob berish jarayonida savolning ahamiyatiga e'tibor berish, dalil va misollarning ishonarli bo'lishini ta'minlash;
4. Suhbat jarayonida tinglovchilar holati, vaqtqiziqishlari, mavzuning dolzarbligini hisobga olish;
5. Suhbatda kamtarlik, xushmuomalalik talablariga javob berish;
6. Suhbat davomida nutqning ifodalilik, ta'sirchanlik, mantiqiylik, to'g'rilik, soflik kabi xususiyatlari talablariga rioya qilish.

### ***Muhokama***

-biror masala yuzasidan ko'pchilikning fikrini to'plash, ma'lum to'xtamlarga kelishini anglatadi.

*Muhokama nutqi oldiga qo'yilgan talablar:*

1. Muhokama mavzusidan chetga chiqmaslik;
2. Fikrni sodda, ixcham, ta'sirli qilib ifodalash;
3. Ortiqcha lirik chekinishlarga berilmaslik;
4. Fikrga mos dalil va isbotlarni aniq, lo'nda qilib keltirish;
5. Boshqalar bildirgan fikrlarni takrorlamaslik;
6. Fikrni ifodalash davomida o'zgaralar fikriga hurmat bilan qarash, o'rinsiz bildirilgan fikrlarni kishi shaxsiga tegmasdan inkor etish;
7. Fikrni bayon qilish davomida hayajonlanmaslik, o'zini og'ir tutish.

### ***Munozara***

-biror masala yuzasidan taraflarning bahsini, tortishuvini anglatadi. Bahs jarayonida har bir ishtirokchi o'zining haq ekanligini isbotlashga intiladi.

*Munozarada nutqqa qo'yilgan talablar:*

1. Mavzudan chetga chiqmaslik;
2. Mavzuni ochuvchi, fikrni isbotlovchi dalillarning yetarli bo'lishi;
3. Dalillardan mantiqan xulosa chiqarish;
4. Nutqning ifodali, tizimli, hayajonli bo'lishi;
5. Nutq shaklining ixcham, qiziqarli bo'lishi;
6. Nutq egasining vazmin, o'g'ir bo'lishi.
7. Suhbatdoshni hurmat qilish va uning shaxsiga tegadigan so'z va gaplarning bo'lmasligi.

***Og'zaki nutqning yuzaga kelishi shart-sharoitlari va uning oldiga qo'yiladigan talablar.*** So'zlashuv uslubi kishilarning kundalik rasmiy-norasmiy, erkin muomalalari doirasida til birliklarining o'ziga xos tarzda amal qilishidir. Bu uslubning o'ziga xos xususiyati nutq jarayonida til va tildan tashqari omillarning uyg'un bo'lishida ko'rinadi.

So'zlashuv nutqi elliptik xarakterda bo'ladi: qorami? ko'kmi? Agar biz uni uy bekasi tilidan eshitsak, qorachoy damlaymi yoki ko'kchoy damlaymi? Degan ma'noda tushunishimiz mumkin. Xuddi shu savolni do'kon sotuvchisi tilidan eshitsak, ***qora choy olmoqchimisiz*** yoki ***ko'k choy sotib olasizmi?*** ma'nosida tushunishimiz ham mumkin. Ikkinchidan ekspressivlik

imkoniyatlarini keng *ulguramizmi?* degan savolga *yo'q, ulgurmaymiz* deyishdan ko'ra vaziyatdan kelib chiqib, *ulgurib bo'pmiz, ulgurish qayoqda, ulgurib ham bo'ldik* singari javoblari bir muncha tabiiy va ekpressivroq bo'lib chiqadi.

Uchinchidan bu uslubda ohang – intonatsiyaning ahamiyati nihoyatda kattadir. Ohang og'zaki nutqning reallashuvida til birliklaridan keying muhim, hal qiluvchi vosita bo'lib, uning nutq tempi, pauza, ton, melodiya, tovush tembri, so'z va gap urg'usi kabi ko'rinishlari ma'noni farqlashda, ottenkalarni ajratib ko'rsatishda, hayajonni kuchaytirishda xizmat qiladi.

Fikrimizni xulosalasak, go'zal va nafis nutq sezgisi hamda unga azaliy ixlosu ehtirom an'anasi, ayniqsa ko'hna sharqda juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Shu donishmand sharq bag'rida bundan besh ming yillar burun dunyoga kelgan eng "keksa" muassasalardan bo'lmish ilk maktablarning bosh vazifalaridan biri ham bolani to'g'ri, aniq gapirish va yozishga o'rgatishdan iborat bo'lganligi, ayni vazifaning bizning kunlarimizga qadar ham o'sha mavqeini yo'qotmay kelayotganligi har qanday jamiyatda til va nutq nufuzining nechog'liq muhtasham o'rin tutishining shahodatidir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Laylo Raupova, Nutq madaniyati. – Toshkent: "Innovatsiya ziyo" 2019.
2. R.Rasulov, Q.Mo'yindinov, Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. –Toshkent 2015.
3. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. T.: 2010y.
4. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik.. – T.: 2003y.
- 5.Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish –T.:Toshkent:2007 y.